

Mavzu: Qushlarning xulqi va migratsiyasi
– Ularning uchish turlari, ko‘chish
sabablari va yo‘nalishlari.

QUSHLARNING XULQI VA MIGRATSIYASI

Qushlar tabiatda eng faol va harakatchan hayvonlardan biridir. Ularning xulqi, uchish imkoniyati va mavsumiy ko'chishlari uzoq vaqt davomida olimlar tomonidan o'rganib kelinadi. Migratsiya – bu qushlarning yilning ma'lum fasllarida bir hududdan boshqa hududga ko'chib o'tishi bo'lib, odatda minglab kilometr masofani o'z ichiga oladi.



YIRTQICH QUSHLAR XULQI

Yirtqich qushlar (burgut, lochin, qarchig'ay, quzg'un, boyqush va boshqalar) tabiatning eng mohir ovchilari hisoblanadi. Ularning xulqi, oziqlanish usullari, parvoz texnikasi va hudud himoyasi boshqa qushlarga nisbatan ancha murakkab va o'ziga xosdir.



Tasqara

Tasqara— oʻlkamizda uchraydigan qushlarning eng yirigi. Tana sining uzunligi 1,5 m ga, qanotlarini yozganda kengligi 3 m gacha yetadi; uning ogʻirligi 6–12 kg, boshi va boʻynidagi patlari juda siyrak boʻladi. Tasqarani uchganida keng va uzun qanotlaridagi oqish patlarini panjasimon yozilishiga qarab bilish mumkin. U havoda uzoq vaqt qanot qoqmasdan ucha oladi, lekin yerda besoʻnaqay qadam tashlaydi. Tasqara hayvonlarning oʻlaksasi bilan oziqlanadi Tasqaraning tirnoqlari kuchsiz boʻlganidan tirik hayvonlar-ga hujum qilolmaydi. Lekin juda kuchli, uchi qayrilgan tumshugʻi bilan hayvonlar terisini yirta oladi



Qora kalxat

Qora kalxatvohalar, to'qaylar va tog'larda, xullas, daraxtlar bo'lgan hamma joyda uchraydi. Uchib borayotgan kalxatni ayri dumiga qarab oson bilib olish mumkin. Kalxat Markaziy Afrika va

Janubiy Osiyoda qishlaydi, mart oylarida uchib kelib, daraxtlarning shoxiga in quradi. Kalxat juda foydali qush bo'lib, ko'pincha baqa-lar, kemiruvchilar, har xil hasharotlar, shu ningdek, kushxonalarining tashlandiqlari va o'laksalar bilan oziqlanadi; mayda qushlarni ham tutib yeydi. U havoda baland uchib, o'lja axtaradi.





Qushlarning uchib ketish sabablari: Yashash oyidagi iqlimning mavsumiy o'zgarishiga moslashishdan iborat. Shimoliy va o'rta mintaqalarda yashaydigan qushlaryilning eng qulay issiq davrida uya qurib, jo'ja ochadi va uni boqib voyaga yetkazadi.

Qushlarning bahorda o'z vatanlariga uchib ketishi ko'payish instinkti bilan bog'liq.



ARXIV.UZ

ARXIV.UZ



- O'troq qushlar. Yil davomida bir joyda yashaydigan chittak musicha, ko'k kaptar, kakha so'fito'rg'ay, qirg'lovul, chumchuq, mayna o'troq qushlar deyiladi. Ayrim qushlar yozda biroz oziq g'amlaydi. Chittaklar yoz oxirida urug' va hasharotlar daraxt po'stlog'i yoriqlariga shoxlardagi lishayniklar orasiga yashirib qo'yadi. O'troqchil bo'ladigan qish yoki erta bahorda ana shu oziq topib yeydi.



Uchib ketuvchi qushlar Kuzda birmuncha sovuq iqlimli joylardan issiq mamlakatlarga uchib ketadilar. Bunday qushlarga qaldirg'och, bulbul, zarg'aldoq, laylak, o'rdak, g'oz, oqqushlar kiradi.

Ko'chib yuruvchi qushlar. Yil fasllariga qarab joyini o'zgartirib turadigan qushlar *ko'chib yuruvchi qushlar* deyiladi. Go'ngqarg'a, olaqarg'a, zog'cha va qorayaloq lar sovuq tusha boshlashi bilan gala bo'lib qor kam, oziq mo'lroq bo'lgan joylarga uchib ketadi.



QUSHLARNING UCHISH TURLARI

Qushlar tana tuzilishi, yashash muhitiga moslashuvi va qanot shakliga qarab turlicha uchish usullariga ega. Ularning uchish texnikasi aerodinamika qonunlariga asoslanadi va har bir tur o'ziga xos harakat tarziga ega.



Qanot qoqib uchish (Flapping flight)

Bu eng keng tarqalgan uchish turi. Qanotlar ritmik tarzda yuqoriga va pastga harakat qiladi.

Misollar: chumchuq, kabutar, qarg'a, mayna.



2. Sirpanib uchish (Gliding flight)

Qush qanotini qoqmaydi, shunchaki havoda sirpanib boradi. Shamol kuchidan foydalanadi.

Misollar: qaldirg'och, albatros, burgut.



3. Termik oqimda parvoz (Soaring flight)

Issiq havo oqimlari yuqoriga ko'tarilganda, qushlar qanotini yoygan holda shu oqimdan foydalanib balandga ko'tariladi.

Misollar: burgut, lochin, laylak, kalxatlar.



4. Sho'ng'ish uchishi (Diving flight)

Qush balanddan tezlik bilan pastga tushadi. Bu ov paytida ishlatiladi.

Misollar: lochin (sapsan), qarchig'ay, suv parrandalari (qarg'a baliqchi).



QUSHLARNING KO'CHISH SABABLARI

Qushlarning migratsiyasi — bu ularning fasllar, iqlim va oziqa sharoitlariga mos ravishda bir hududdan boshqasiga ko'chib o'tish jarayonidir. Ko'chishning asosiy sabablari quyidagilardir:



1. Oziqa yetishmasligi

Oziqa yetishmasligi — qushlarning koʻchishining eng asosiy sabablaridan biridir. Qish faslida hasharotlar yoʻqoladi, oʻsimlik urugʻlari tugaydi, suv havzalari muzlab qoladi. Natijada qushlar oʻziga yetarli ovqat topa olmaydi. Shuning uchun ular issiq va oziqa koʻp boʻlgan Janubiy hududlarga koʻchib oʻtadi.



Genetik instinkt (tugʻma biologik ritm) — bu qushlarning koʻchish xatti-harakati ularning genlarida kodlanganligi. Ular ota-onasidan meros qilib olgan instinkt orqali qachon va qaysi yoʻnalishda migratsiya qilishni “biladi”. Shuning uchun qushlar har safar aniq va muntazam yoʻllar boʻylab koʻchadi.



Yirtqichlardan himoyalalanish — bu qushlarning koʻchish sabablaridan biri boʻlib, ularni tabiatdagi xavfli predatorlardan saqlanishga majbur qiladi.

Masalan:

Qushlar yirtqichlar koʻpaygan hududdan xavfsizroq joyga koʻchadi.

Kichik qushlar yirtqich qushlardan (lochin, burgut, qargʻa) uzoqlashish uchun boshqa hududlarni tanlaydi.

Bu koʻchish ularning omon qolishi va avlodini saqlashiga yordam beradi.

Oddiy qilib aytganda, qushlar xavfli hududlardan qochib, xavfsizroq yashash sharoitiga koʻchadi.



Gde-Fon.com

Gde-Fon.com



Qushlarning ko'chish yo'nalishlari

1. Shimoldan janubga yo'nalish

Eng keng tarqalgan yo'nalish.

Qushlar yozda Shimoliy hududlarda yashaydi, qish kelganda issiq Janubiy hududlarga ko'chadi.

Misollar: o'rdaklar, laylaklar, qaldirg'ochlar.

2. Sharqdan g'arbga yo'nalish

Kam uchraydi, asosan Evropa va Osiyo hududlaridagi ayrim turlarda kuzatiladi.

Ba'zi qushlar sharqiy hududlardan g'arbiy hududlarga ko'chadi.

3. Qisqa masofali migratsiya

Bir mamlakat ichida yoki yaqin qo'shni hududlarga ko'chadi.

Masalan, O'zbekistonda qishlovchi ba'zi qaldirg'och va o'rdak turlari.



Xulosa: Qushlar migratsiyasi tabiiy instinkt, oziqa yetishmasligi va iqlim sharoitiga bog'liq bo'lib, ular aniq va muntazam yo'nalishlar bo'ylab ko'chadi.